

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES	20
Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	30
Nosirova Kamola Alimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	39
Xazratov Abror Panjiyevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	44
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY ASOSLARI

Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, DSc

Kodirova Samira Kamol qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta ekotizimini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Sug'urta ekotizimining mazmuni, uning ishtirokchilari hamda raqamli texnologiyalarning sug'urta xizmatlari samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Milliy sug'urta bozorini raqamlashtirish jarayonlari va sug'urta ekotizimini rivojlantirishning institutsional asoslari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida sug'urta tashkilotlarida raqamli ekotizimlarni joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta ekotizimi, raqamli iqtisodiyot, sug'urta bozori, raqamli transformatsiya, sug'urta tashkiloti, raqamli platforma, sun'iy intellekt, Big Data, fintex, kibertavakkalchilik, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В статье исследованы вопросы формирования и развития страховой экосистемы в условиях цифровой экономики. Проанализированы сущность страховой экосистемы, её участники, а также влияние цифровых технологий на эффективность страховых услуг. Освещены процессы цифровизации национального страхового рынка и институциональные основы развития страховой экосистемы. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по внедрению цифровых экосистем в деятельность страховых организаций.

Ключевые слова: страховая экосистема, цифровая экономика, страховой рынок, цифровая трансформация, страховая организация, цифровая платформа, искусственный интеллект, Big Data, финтех, киберриски, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the issues of forming and developing an insurance ecosystem in the context of the digital economy. The study analyzes the essence of the insurance ecosystem, its participants, and the impact of digital technologies on the efficiency of insurance services. Particular attention is paid to the digitalization of the national insurance market and the institutional foundations for the development of the insurance ecosystem. Based on the research findings, practical recommendations are proposed for the implementation of digital ecosystems in the activities of insurance organizations.

Keywords: insurance ecosystem, digital economy, insurance market, digital transformation, insurance organization, digital platform, artificial intelligence, Big Data, fintech, cyber risks, competitiveness.

KIRISH

Jahonda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va blokcheyn asosidagi innovatsion yechimlarning keng joriy etilishi iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, global iqtisodiyotda raqobat muhitining kuchayishi, yuqori samaradorlikka ega tashkilotlar sonining ortishi hamda raqamli xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi moliyaviy xizmatlar bozori ishtirokchilaridan yangi boshqaruv yondashuvlari va zamonaviy biznes modellarini qo'llashni talab etmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning kengayishi natijasida kibexavfsizlikka oid tahdidlar, axborot xavfsizligi muammolari, ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash va raqamli tavakkalchiliklarni boshqarish masalalari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bunday sharoitda sug'urta sohasi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim moliyaviy institut sifatida nafaqat an'anaviy xavflarni qoplash, balki raqamli muhitda yuzaga kelayotgan yangi tavakkalchiliklarni boshqarish vazifasini ham bajarmoqda. Xususan, kibertavakkalchiliklar, raqamli firibgarlik holatlari, axborot tizimlaridagi uzilishlar va texnologik nosozliklar bilan bog'liq xavflarni baholash hamda sug'urta himoyasi mexanizmlarini takomillashtirish sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishning



muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro moliya bozorlarida raqobatbardoshlikni ta'minlash, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, raqamli platformalar orqali sug'urta mahsulotlarini taqdim etish ko'lamini kengaytirish, risklarni baholashning intellektual tizimlarini joriy qilish hamda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sug'urta xizmatlarining raqamlashuv darajasi, korporativ boshqaruv sifati, innovatsion faollik va kiberxavfsizlik tizimining rivojlanganlik darajasi sug'urta tashkilotlarining raqobat ustunligini belgilab beruvchi muhim mezonlarga aylanmoqda. Mazkur holatlar sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozori keskin rivojlanib borayotgan milliy iqtisodiyotning bir bo'g'ini hisoblanib kelmoqda, sug'urta tashkilotlari ushbu bo'g'inning, ya'ni sug'urta bozorining asosiy komponenti hisoblanadi. O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyotga transformatsiya jarayoni, sug'urta bozori, sug'urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, "O'zbekiston yangi taraqqiyot sari intilmoqda, mamlakatimizda, milliy iqtisodiyotda iqtisodiy, siyosiy, tuzilmaviy va ijtimoiy islohotlar keskin sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda, ilmiy-innovatsion muhit, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishning yangi qirralarini zabt etmoqda". "Inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga asoslangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qabul qilinishi islohotlar evolyutsiyasining rivojlanish falsafasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Asosiy maqsad raqamli transformatsiya jarayonida milliy iqtisodiyotning rivojlanish trayektoriyasini o'zgartirish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, kiberrisklarning oldini olish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etishdan iborat. "O'zbekistonda o'zgarishlar markazida inson, uning huquq va qonuniy manfaatlarini turibdi. Inson kapitaliga, bilim va innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar, "yashil" iqtisodiyotga o'tish iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri, uning raqobatbardoshligini oshirish va mamlakatni barqaror rivojlantirish sharti sifatida qaralmoqda".

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta bozorining rivojlanishi, sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va kibertavakkalchiliklarni boshqarish masalalari keng tadqiq etilgan, ammo sug'urta ekotizimini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda uning institutsional tarkibiy elementlarini kompleks baholash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

G'arbiy Yevropa olimlari G. Sorek va R. Thoyts tomonidan rivojlangan mamlakatlarda sug'urta faoliyatini raqamlashtirish jarayonlari, raqamli texnologiyalarning sug'urta bozoriga ta'siri va innovatsion sug'urta xizmatlarini joriy etish istiqbollari tadqiq qilingan. MDH davlatlari olimlari N.G. Adamchuk va L.A. Orlanyuk-Malitskaya ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urtaning roli, raqamli transformatsiya jarayonlarining sug'urta bozori rivojlanishiga ta'siri hamda sug'urta xizmatlarini modernizatsiya qilish yo'nalishlari yoritilgan.

O'zbekistonlik olimlar X.M. Shennayev hamda F.X. Xasanov tomonidan milliy sug'urta bozorining rivojlanish istiqbollari, raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta munosabatlarini takomillashtirish, kibertavakkalchiliklarni sug'urtalash va sug'urta xizmatlarini raqamli platformalar asosida tashkil etish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor sug'urta bozorining alohida segmentlari, sug'urta mahsulotlari va raqamli xizmatlar rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, sug'urta tashkilotlari, qayta sug'urtalovchilar, sug'urta brokerlari, davlat regulyatorlari, axborot texnologiyalari provayderlari, fintex subyektlari va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro integratsiyalashgan munosabatlarni qamrab oluvchi sug'urta ekotizimini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Bir qator xorijiy olimlar sug'urta kompaniyalari biznes jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish xususiyatlarini o'rganib kelmoqdalar. Xususan, D. Rey, A. Garrido va J. Calatrava sug'urta shartnomalarini tuzish jarayonlarini avtomatlashtirish, anderryting faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish, telemeditsina yechimlarini hayot va tibbiy sug'urta amaliyotiga joriy etish masalalarini tadqiq qilganlar. Shuningdek, telematik tizimlarni joriy qilish, qishloq xo'jaligi sug'urtasida raqamli ma'lumotlardan foydalanish, kiberrisklarni sug'urtalash va sun'iy intellekt texnologiyalarini sug'urta xizmatlariga tatbiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati sug'urta faoliyatining alohida yo'nalishlari, raqamli texnologiyalar yoki sug'urta mahsulotlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta ekotizimini shakllantirish, uning ishtirokchilari o'rtasidagi integratsion aloqalarni rivojlantirish, ekotizim samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda sug'urta bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvlar yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur holat sug'urta ekotizimini rivojlantirishning nazariy, metodik va amaliy jihatlarini chuqur tadqiq etish zaruratini belgilab beradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta ekotizimini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil, mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida sug'urta bozori ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, raqamli texnologiyalarning sug'urta xizmatlari samaradorligiga ta'siri hamda sug'urta ekotizimini rivojlantirishning institutsional omillari tahlil qilindi. Shuningdek, milliy sug'urta bozorini raqamlashtirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar asosida sug'urta tashkilotlarida raqamli ekotizimlarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirishda ma'lum bir barcha xizmatlarni o'zida mujassam qilgan iqtisodiy makonni yaratish taqozo qilinmoqda. Sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishi bevosita global o'zgarishlar ta'sirida bo'lib o'tmoqda. Sug'urta tashkilotlari duch kelayotgan eng katta xavf biznesning raqamlashtirish bilan bog'liq tarkibiy va texnologik o'zgarishlarga moslashish qobiliyati bo'lib, bunda raqamlashtirish sug'urta kompaniyalari uchun raqobatdoshlikda ustunliklarga erishishda majburiy zarurat va hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyoti tendensiyalari mijozlar ehtiyojiga ta'sir etmoqda, sug'urta tashkilotlari tomonidan taklif etilgan sug'urta xizmatlari talablardan ortda qolmoqda. Shularni inobatga olgan holda, yagona iqtisodiy makonni yaratish, sug'urta agregatorlarini unifikatsiya qilish va shu asnoda sug'urta ekotizimiga ehtiyojni kashf etmoqda.

Ekotizim mijozlarga turli xil ehtiyojlarini bitta integratsiyalashgan tizimda qondirish imkonini beradigan o'zaro bog'langan xizmatlar to'plamidir. Ekotizim xizmatlari sug'urta mahsulotlarini sotib olishga qiziqishni oshiradi va mijozlarning sug'urtaga moyilligini oshiradi. Sug'urta kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan yaxshi boshqariladigan platforma xavf va da'volar bo'yicha xarajatlarni kamaytirish, anderrayting jarayonlarini maqbullashtirish va soddalashtirish, mijozlarni ma'lum kategoriyalarga ajratish, sug'urta tarif stavkalarini belgilash kabi vazifalarni bajarish orqali sug'urta tashkiloti samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Sug'urta sohasining an'anaviy sug'urta mahsulotlarini raqamlashtirish generatsiyasini amalga oshirish, sug'urta portfelini ekstrapolyatsiya qilish orqali raqamli transformatsiyalash amalga oshiriladi. Sug'urta tashkilotlarining raqamli generatsiyasi barcha sug'urta tashkilotida raqamli texnologik yangilanish hisoblanadi, sug'urta portfelining ekstrapolyatsiyasi esa sug'urta portfelini diversifikatsiya qilish orqali uning barqarorligini ta'minlash hamda sug'urta tashkilotlari professional trayektoriyasini o'zgartirib, mijozga yo'naltirilgan siyosatni olib borish hisoblanadi. Raqamli sug'urta tadbirkorlik subyektlari va aholining mulkiy manfaatlarini himoya qilishda raqamli sug'urta mahsulotlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Sug'urta platformalari hayot sug'urtasini rivojlantirishning muqarrar shakli hisoblanadi. Agar inson bir ekotizimda nafaqat polisni, balki uning hayoti va sog'lig'i uchun foydali bo'lgan ko'plab xizmatlarni ham olishi mumkin bo'lsa, uning sug'urtalovchiga nisbatan bo'lgan ishonchi ortadi.

Ekotizimning asosiy xususiyati shundaki, mijoz ekotizimning har bir ishtirokchisi bilan bevosita bog'liq bo'ladi, ekotizimda boshqa sug'urta tashkilotlari taqdim eta olmagan qo'shimcha xizmatlar majmuidan iborat bo'ladi.

X.M. Shennayevning ta'kidlashicha, "Ma'lumki, barcha sohalarda bo'lgani kabi sug'urta sektorida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish Internet global tarmog'ida raqamli platformalar yaratish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, raqamli platforma boshqaruv va xizmat ko'rsatish vositalarining texnik arxitekturasini o'zida mujassam etgan bo'lib, u qisqa muddatli kelajakda dasturiy ta'minotni ishlab chiqishni nazarda tutadi".

Sug'urta sohasida bir qator omillar, jumladan, iste'molchilar ehtiyojlarining ortishi, raqobatning kuchayishi, jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish zarurati hamda to'lovlari amalga oshirilgan sug'urta tovonlari hajmining ortishi natijasida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Har bir sug'urtalovchi mijozlarni jalb etish chora-tadbirlari jarayonini kengaytirishni oshirish, sug'urta taklifini kengaytirish, sug'urtada anderrayting faoliyatini soddalashtirish, raqamlashtirish va ekotizim bilan hamkorlikni ta'minlash ishlarini olib borishi zarur.

Sug'urta ekotizimining transformatsiyasi va raqamli generatsiya yashil iqtisodiyotga asos bo'ladi, ekotizim transformatsiyasi sug'urta tashkiloti rivojlanish trayektoriyasini o'zgartiradi hamda yangi sotuv kanallarini joriy qilish asosiy omil hisoblanadi.

Raqamli transformatsiyaning shakllari, texnologik jarayonlar hamda ijobiy taraflari 1-rasmda keltirilgan.

Афзалликлари ва имкониятлари	реал вақт режимида барча ахборот оқимларини рўйхатга олишнинг комплекс тарзда янгиланиши	самарадорлик, мижозларга хизмат кўрсатиш сифатини ошириш, харажатларни оптимallasштириш, хизмат кўрсатиш жараёнини тезлаштириш ва зарарларни бартараф этиш	ахборотларни тўплаш, мижозларнинг хатти-ҳаракат-ларини ўрганиш, даъволарни қайта ишлашда реал вақт режимида ахборот, хавфни баҳолаш, мижозларга маслаҳат бериш, йўқотишларнинг олдини олиш ва камайтириш	жараёнларнинг самарадорлиги ва мослашувчанлиги; конфигурация, ишлаб чиқиш, аппарат таъминоти, лицензиялаш, ўрнатиш ва эски тизимга хизмат кўрсатиш харажатларини тежаш; исталган жойда ва исталган вақтда маълумотларнинг мавжудлиги	ишонч, барқарорлик ва хавфсизлик; ахборот оқимларини самарали ташкил этиш, мижозлар маълумотларининг умумлаштирилган, кенг қамровли маълумотлар базаси
Технология	Big data	Сунъий интеллект	Буюмлар Интернет	Булутли ҳисоблашлар	Блокчейн
Суғуртада қўлланилиши	суғурта рейтинглари, баҳолашлар, нархларни белгилаш, мижозлар маълумотлари, шахсийлаштирилган таклифлар, кесишган (ўзаро) сотувлар ва ҳ.к.	мижозларни сегментациялаш ва уларни бошқариш, хавфларни баҳолаш, фирибгарликни аниқлаш, кесишган (ўзаро) сотувлар, хизматларнинг шаффофлиги, чат-ботлар, рақамли ёрдамчилар, роботлаштирилган масал аҳатлар	хавфларни баҳолаш ва уларни бошқариш, рақамли мониторинг, янги маҳсулотларни жорий этиш, комплекс суғурта платформалари, автоматлаштирилган ёрдамчи хизматлар, кесишган (ўзаро) сотувлар, фирибгарликнинг олдини олиш	алоқа жараёнларини, ўз-ўзига хизмат кўрсатиш функциялари, мижозларга йўналтирилган булутли маҳсулотлар, брокерлар билан ҳамкорликни ривожлантириш учун ҳамкорлик моделлари, кесишган сотувларни такомиллаштириш	ақли (смарт) шартномалар, хавфларни баҳолаш ва суғурта тарифларини аниқлаштириш, суғурта фирибгарлигини аниқлаш, «талаб бўйича» суғурта, параметрик суғурта

1-rasm. Sug'urtada raqamli generatsiyaning imkoniyatlari¹

Platformani biz biznes-model sifatida ko'rishimiz mumkin, unda sug'urta tashkilotlari va mijozlar o'zaro aloqaga kiradilar. Shu bilan birga, ekotizim foydalanuvchilarga yagona integratsiyalashgan tajriba doirasida turli xil ehtiyojlarni qondirishga imkon beradigan o'zaro bog'langan xizmatlar to'plamidir.

Ekotizim terminiga ta'rif beradigan bo'lsak, bu muayyan tendensiyalarga ega, samaradorlikni ta'minlovchi, mijozlar talabini qondirish va faoliyatni soddalashtirish bo'yicha raqamli texnologiyalardan tashkil topuvchi majmua. Milliy iqtisodiyotning har bir bo'g'inida va tarmog'ida o'ziga xos ekotizimni yaratish mumkin.

Ekotizim quyidagi imkoniyatlarga ega: bitta maqsadga ega xizmat ko'rsatuvchilarning iqtisodiy samarani olish uchun bitta ekotizimga o'z faoliyatlarini mujassamlashtirish orqali yagona xizmat ko'rsatish tizimini yaratish; barcha ekotizim ishtirokchilari tomonidan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni mijozlarga taklif qilish; ekotizim ishtirokchilarining mijozga yo'naltirilgan siyosatini olib borish; ekotizim mijoziga qo'shimcha imkoniyatlar va xizmatlarni taklif etish imkoniga ega.

Sug'urta ekotizimi bitta sug'urta tashkiloti tomonidan yaratilishi yoki bir nechta sug'urta tashkiloti tomonidan katta risklarni sug'urtalash uchun yaratilishi mumkin.

Agar sug'urta ekotizimining tashabbuskori yagona bo'lsa, bunday ekotizim "monoekotizim" deb ataladi. Agar ekotizim bir nechta sug'urta tashkiloti tomonidan yaratilgan bo'lsa, bunday ekotizim multiekotizim yoki multirisikli ekotizim deb ataladi.

Ekotizim yaratuvchisi bo'lgan tadbirkor sug'urta tashkiloti ekotizim doirasida o'z faoliyatini yanada rivojlantirib, raqobat ustunligiga erishadi. Tadbirkor bu maqsadiga o'zining sug'urta biznesini iqtisodiyotning turli sektorlari, turli segmentlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga yaqinlashtirish orqali erisha oladi.

Biroq bunda ekotizim doirasida biznes yuritish uchun elektron baza katta investitsiyalarni talab qilishi

1 **Manba:** muallif tomonidan tuzilgan.



sababli faqat yirik sug'urtalovchilar ekotizim yaratuvchisi bo'lishi mumkinligini tushunish kerak.

Sug'urta ekotizimi ishtirokchilari to'g'ridan-to'g'ri sug'urta faoliyati bilan bog'liq ishtirokchilar bo'lishi mumkin, masalan: sug'urtalangan shaxsning sog'lig'i holatini onlayn rejimda baholaydigan tibbiy asbob-uskunalar ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan ekotizim ishtirokchilari. Bundan tashqari, ekotizimda boshqa ishtirokchilar ham bo'lishi mumkin, ular ekotizim yaratuvchi sug'urta tashkiloti uchun foydali faoliyat yuritib, sug'urta tashkiloti uchun qo'shimcha daromad olib kelishi zarur.

Xuddi shunday tajribaga Ping An Insurance sug'urta ekotizimi ham ega. Ping An Insurance Xitoyning moliyaviy konglomerati bo'lib, uning tarkibiga 2025-yil holatiga ko'ra kompaniyalar, dunyodagi eng yirik sug'urta guruhi va Ping An Insurance kiradi. Guruh faoliyati to'rtta asosiy yo'nalishda olib boriladi: hayot sug'urtasi, mulk sug'urtasi, bank xizmatlari, aktivlarni boshqarish. Kompaniyaning sug'urta agentlari soni million kishidan, filiallari soni 7 mingdan ortiq bo'lib, 305 million mijozga xizmat ko'rsatadi.

To'laqonli ekotizimni qurish uchun maqsadli ko'p yillik investitsiyalar kerak bo'ladi. Sug'urta tashkilotlarining rivojlanish trayektoriyasini o'zgartirish sug'urta tizimini yaratishga turtki bo'ldi, uning sabablarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin, masalan: sug'urta tashkilotida yaratilgan sug'urta ekotizimi sug'urta bozorida raqobat ustunligini beradi; ikkinchidan, sug'urta bozorining raqamli generatsiyasiga asos bo'ladi, natijada sug'urta bozori innovatsion transformatsiyasi amalga oshiriladi. Sug'urta bozorida firibgarlik holatlari ham faoliyatning ajralmas qismiga aylandi, sug'urta ekotizimi va uning ishtirokchilari integratsiyasi sug'urta munosabatlarining shaffofligini ta'minlaydi, shu orqali sug'urta portfeli ekstrapolyatsiya bo'lishiga olib keladi.

Hozirda respublika sug'urta bozorini raqamlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-sonli "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayotni sug'urtalash sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [3].

Qarorda "Sug'urta to'lovlarini kafolatlash jamg'armasiga Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-iyungacha qadar transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha yagona axborot tizimi negizida barcha sug'urta polislarini ro'yxatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishini ta'minlash" topshirig'i berilgan [3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-iyuldagi 458-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori milliy sug'urta bozorini raqamli transformatsiya qilish va sug'urta ekotizimini shakllantirishning muhim institutsional bosqichi hisoblanadi [1]. Mazkur qarorga muvofiq sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta va qayta sug'urta shartnomalarini Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazish hamda sug'urta polislarini elektron shaklda rasmiylashtirish majburiy tartib sifatida belgilandi. Shuningdek, elektron sug'urta agentlari faoliyatini tartibga solish, davlat organlari va sug'urta bozori ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini kengaytirish, sug'urta xizmatlarining raqamli infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha aniq mexanizmlar joriy etildi.

Mazkur qaror mazmuni tahlili shuni ko'rsatadiki, unda alohida sug'urta kompaniyalarini rivojlantirish emas, balki sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalovchilar, sug'urta agentlari, davlat regulyatori, axborot texnologiyalari operatorlari va iste'molchilarni yagona raqamli makonda o'zaro bog'lovchi sug'urta ekotizimini shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Natijada sug'urta xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarining shaffofligi oshadi, ma'lumotlar almashinuvini tezlashadi, operatsion xarajatlar qisqaradi va sug'urta bozori ishtirokchilari o'rtasida integratsiya kuchayadi. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy sug'urta ekotizimining barqaror rivojlanishi, kibertavakkalchiliklarni samarali boshqarish va sug'urta xizmatlarining ommabopligini oshirish uchun mustahkam tashkiliy-iqtisodiy asos yaratadi.

Shu sababli, mamlakatimizda sug'urta sohasini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida sug'urta ekotizimini shakllantirish va uning samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sug'urta tashkilotlarida sug'urta ekotizimini ishlab chiqish afzalliklarini tahlil qilish quyidagicha xulosaga olib keldi:

- yagona elektron bazani yaratish va sug'urta tariflarini optimallashtirish, sug'urta andarrayting faoliyatini soddalashtirish imkonini beradi;
- sug'urta ekotizimida sug'urta xizmatlarini taklif etuvchi ishtirokchilardan tashqari, boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari ham o'z xizmatlarini taklif etadilar;
- ekotizim ishtirokchilari faoliyati bitta iqtisodiy makon ichida bo'lishi biznes jarayonlarni soddalashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi;
- sug'urta ekotizimi ishtirokchilari yagona maqsad sari intilib, iqtisodiy manfaatlar uyg'unligiga erishadi.

Sug'urta ekotizimini shakllantirish jarayonining kechikishi yoki uni joriy etishdagi sustlik sug'urta bozorining rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

sug'urta ekotizimini yaratishdan voz kechish sug'urta tashkilotining raqamli transformatsiya strategiyasiga mos kelmaydi va uning bozordagi mavqei zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, raqamlashtirish

jarayonlarini institutsional qo'llab-quvvatlash samaradorligi pasayishi, mijozlarning to'lov qobiliyatini baholash bo'yicha skoring tizimi hamda AML monitoring imkoniyatlaridan foydalanish darajasi cheklanishi mumkin;

- sug'urta ekotizimi doirasida xizmatlar davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilishi mumkin. Jumladan, davlat idoralari bilan integratsiya yo'lga qo'yilishi orqali yo'l-transport hodisalari bo'yicha ma'lumotlarni YPX tizimlaridan bevosita olish, tegishli xulosalarni tezkor shakllantirish hamda sud jarayonlari uchun zarur hujjatlarni tayyorlash imkoniyatlari kengayadi;
- raqobatbardoshlikni oshiruvchi ekotizim sug'urta tashkilotlarining imkoniyatlarini kengaytiradi va mijozlar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Ekotizimni shakllantirish keyingi bosqichlarda amalga oshirilgan taqdirda ham, dastlabki davrda olinishi mumkin bo'lgan samaradorlik darajasiga erishish murakkablashishi mumkin. Shu sababli bugungi kunda ekotizimni yaratish ma'lum qo'shimcha xarajatlarni talab qilsa-da, kelgusida ushbu xarajatlar sug'urta tashkilotlari uchun barqaror daromad va operatsion samaradorlik manbaiga aylanishi mumkin.
- sug'urta ekotizimi sug'urta tashkilotining transaksion xarajatlarini kamaytirishi natijasida sug'urta tarifining ham kamayishiga olib keladi, aholi uchun bu arzon sug'urta xizmatlarini sifat darajasi o'zgarmagan holda taklif etish imkonini beradi.

Ekotizimlarda muvaffaqiyatga erishish uchun sug'urtalovchilar o'zlarining an'anaviy rollari va biznes modellarini diqqat bilan qayta ko'rib chiqishlari va boshqa sohalardagi ishtirokchilar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini yana bir marta baholab chiqishlari kerak. Ekotizim jihatdan tafakkurlashga o'tish ko'plab sug'urtalovchilar uchun mashaqqatli bo'lishi mumkin, ammo bu o'zgaruvchan maydonni tushunadiganlar yangi daromad manbalarini yaratishda birinchi qadamlarni qo'yishlari mumkin.

Sug'urta kompaniyalari uchun soha istiqbolidan ekotizim istiqboliga o'tish ularning iqtisodiyotdagi o'z rolini qanday belgilashlarida sezilarli o'zgarishlarni talab qiladi. Hozirgi vaqtda sug'urtalovchilar, asosan, tavakkalchilik agregatorlari sifatida ish yuritadilar. Ular mijozlar bilan passiv va cheklangan munosabatlarda bo'lib, bu esa ularning integratsiya bo'lmasliklari, tijoratlashtirish va to'g'ridan-to'g'ri faoliyatda ishtirok etmaslikka moyilligini oshiradi. Agar sug'urtalovchilar o'zlarining sotish va mijozlar bilan munosabatlarini yo'qotsalar, ular o'z biznes modellarini qayta ishlash uchun imkoniyatlari chegaralanib qoladi. Ekotizim sug'urta faoliyatida raqamli strategiyalarni jonlantirishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari bank singari mijozlarni tahlil qilish amaliyotini joriy qilishni ekotizim orqali amalga oshirishi mumkin, katta hajmdagi ma'lumotlar, aynan, sug'urta ekotizimida saqlanishi mumkin, turli xil tashkilotlar bilan hamkorlik sug'urta biznes jarayonlarini soddalashtiradi. Raqamlashtirish va ekotizimni yaratish mamlakat sug'urta bozorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish ta'sirida milliy sug'urta bozorining yangi imkoniyatlar sari transformatsiyasi amalga oshirilishiga erishiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta tashkilotlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda sug'urta ekotizimini shakllantirish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Sug'urta ekotizimi sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, davlat regulyatorlari, fintex kompaniyalari, axborot texnologiyalari provayderlari va mijozlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish orqali sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish, transaksion xarajatlarni qisqartirish hamda sug'urta bozorining raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, sug'urta ekotizimi raqamli platformalar, katta ma'lumotlar texnologiyasi, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish mexanizmlari asosida sug'urta biznes jarayonlarini soddalashtirish, andarrayting va da'volarni ko'rib chiqish jarayonlarini tezlashtirish, firibgarlik holatlarini kamaytirish hamda mijozlarga kompleks xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Respublika miqyosida sug'urta tashkilotlari, davlat organlari va fintex subyektlarini o'zaro bog'lovchi milliy sug'urta ekotizimi platformasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Sug'urta ekotizimi ishtirokchilari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash uchun Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi negizida integratsiyalashgan raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish zarur.

Sug'urta kompaniyalarida mijozlarni segmentlash, risklarni baholash va individual sug'urta mahsulotlarini shakllantirish uchun sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan keng foydalanish lozim.

Yo'l harakati xavfsizligi, sog'liqni saqlash, kadastr, bank va soliq organlari axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvni kuchaytirish orqali sug'urta xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadga muvofiq.

Sug'urta ekotizimi samaradorligini baholash uchun raqamlashuv darajasi, integratsiya ko'lami, mijozlar faolligi, xizmatlar qamrovi va operatsion samaradorlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan kompleks baholash



tizimini joriy etish zarur.

Umuman olganda, sug'urta ekotizimini shakllantirish milliy sug'urta bozorining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, sug'urta xizmatlarining ommabopligini oshirish, mijozlarga yo'naltirilgan innovatsion xizmatlarni rivojlantirish hamda mamlakat sug'urta bozorining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda sug'urta tashkilotlarining an'anaviy risklarni qoplovchi institutdan raqamli xizmatlar platformasiga aylanishi sohaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-iyuldagi 458-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida' 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-7643121>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5692504>
4. Shennayev X.M. Sug'urta sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashning ba'zi masalalari. // The International Online Conference Proceedings on "Digital Economy: Impacts, Challenges and Prospects". April 23, 2020. – Tashkent: Management Development Institute of Singapore in Tashkent, 2020. – P. 161–163.
5. Sorek G., Benjamin D. Health Insurance Mandates in a Model with Consumer Bankruptcy. // Journal of Regulatory Economics. – 2016. – Vol. 50, Issue 2. – P. 233–250. DOI: 10.1007/s11149-016-9302-x.
6. Thoyts R. Insurance Theory and Practice. – London: Routledge, 2010. – 344 p.
7. Glaser K.L. Inside the Insurance Industry. Third Edition. – Right Side Creations, LLC, 2014. – 124 p.
8. Rey D., Garrido A., Calatrava J. Comparison of Different Water Supply Risk Management Tools for Irrigators: Option Contracts and Insurance. // Environmental and Resource Economics. – 2016. – Vol. 65, Issue 2. – P. 415–439. DOI: 10.1007/s10640-015-9912-2.
9. Адамчук Н.Г. Мировой страховой рынок на пути к глобализации. – М.: РОССПЭН, 2004. – 590 с.
10. Орланюк-Малицкая Л.А., Янова С.Ю. Страхование: учебник для бакалавров. – М.: Издательство Юрайт, 2011. – 828 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100